


ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

ISSUE 12
DECEMBER

Journal of
RESEARCH
and **INNOVATIONS**

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 12-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-12

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-12

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 12 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-12>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054912**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.1** “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

SAIDAKBAROVA Nilufar Saidaziz qizi
*O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi
magistranti*

MAMANOSIROV Faxriddin Nigmatullaevich
*Toshkent islom instituti
katta o'qituvchisi*
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10389491>

FATVO KITOBLARI VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Fatvo” so‘zining lug‘aviy va istelohiy ma‘nolari, ularning izohi hamda fatvo berish uchun yetuk ulamolar shartligi keltirilgan. Fatvo kitoblari yozilishi, ular orasida ahli sunna val jamoa ulamolari tan olgan mo‘tabar asarlar, ularning o‘ziga xos uslubi, lingivistik xususiyatlari, fatvolar huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo‘llanuvchi nutq uslubi - rasmiy uslubda yozilishi bayon qilingan. Rasmiy uslubning turlari, uning o‘ziga xos xususiyatlari sanab o‘tilgan. Namuna sifatida Ahmad ibn Muhammad Buxoriyning “Xizonat al-fatovo” qo‘lyozma asaridan fatvoga misol keltirilib, undagi rasmiy so‘zlar ko‘rsatib o‘tilgan. Rasmiy uslub xususiyatlari, ko‘rinishlari izohlangan.

Kalit so‘zlar: fatvo, fiqh, rasmiy uslub, huquqiy qonunchilik, diplomatik uslub, idoraviy-devonxona uslubi, sof qonunchilik uslubi, rasmiy xatlar, ariza, tushuntirish xati, bildirgi, sintaktik qurilma, qo‘lyozma, adabiy me‘yor, obrazlilik

КНИГИ ФАТВИ И ИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены словарь и условные значения слова «Фетва», их объяснение, а также требования к зрелым учёным для издания фетвы. Написание книг фетв, среди которых авторитетные произведения, признанные учеными общины Ахле-сунна валь, своим уникальным стилем, языковыми особенностями, фетвы написаны в официальном стиле речи, используемом в рамках правового законодательства и административных отношений. Перечислены виды формального стиля, его особенности. В качестве примера приведена фетва рукописи Ахмада ибн Мухаммада Бухари «Хизонат аль-фатава» в главе о посте и показаны официальные слова в ней. Объясняются особенности и виды официального стиля.

Ключевые слова: фетва, юриспруденция, официальный стиль, юридическое законодательство, дипломатический стиль, ведомственный стиль, чистый юридический стиль, официальные письма, заявление, объяснительное письмо, заявление, синтаксический прием, рукопись, литературный стандарт, образность

FATWA BOOKS AND THEIR LINGUISTIC CHARACTERISTICS

ANNOTATION

This article presents the dictionary and arbitrary meanings of the word "Fatwa", their explanation, and the requirements for mature scholars to issue a fatwa. The writing of fatwa books, among them the authoritative works recognized by the scholars of Ahle sunna wal community, their unique style, linguistic features, fatwas are written in the official style of speech used within the framework of legal legislation and administrative relations. Types of formal style, its specific features are listed. As an example, the fatwa of Ahmad ibn Muhammad Bukhari's manuscript "Khizonat al-fatawa" in the chapter on fasting is given, and the official words in it are shown. Official style features and views are explained.

Key words: fatwa, jurisprudence, official style, legal legislation, diplomatic style, departmental style, pure legal style, official letters, application, explanatory letter, statement, syntactic device, manuscript, literary standard, imagery

Arab tilida “fatvo” so’zi “qiyin savolga javob berish” ma’nosini anglatadi [1, B.463].

Fatvoning istilohiy ma’nosi esa, shar’iy dalillarning taqozosiga ko’ra diniy masala borasida biror holatga tushgan kimsa uchun Alloh taoloning hukmi haqida xabar berishdir. Ammo, fatvo umumiy tarzda beriladi, shart qilish jihatiga ko’ra berilmaydi. Alloma Munaviy rahimahulloh aytadi: “Fatvo berish – bu masalaning hukmini bayon qilishdir” [2, B.18].

Ta’rifga ko’ra, fatvo - biror odam qandaydir holat, hodisaga duch kelgan vaqtda shar’iy masalalar bilan bir qatorda, aqida, tafsir, hadis, siyrat kabi din ilmlari yuzasidan berilgan savollarga javob berish, xabar qilishdir. Bunda aytilgan javobga amal qilish so’rovchining ixtiyorida bo’ladi. Muftiyning javobi qozi chiqargan hukmdan farqli bo’lib, qozining hukmini bajarish majburiy, shart hisoblanadi [3, B.31].

Birinchi fatvo beruvchi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bo’lganlar. U zotdan keyin olim sahobalar, tobe’inlar, taba’a tobe’inlar va mujtahid ulamolar fatvo beruvchi bo’ldilar. Bu ish hozirgacha davom etib kelmoqda.

Musulmonlar hayotida paydo bo’ladigan savollar bo’yicha fatvo berib turishning ta’minlanishi farzi kifoyadir. Ya’ni fatvo berib turishga yetarli ulamolar bo’lishi shartdir. Boshqa diniy ilmlar kabi, fatvoga oid ma’lumotlar ham avval og’zaki tarzda bayon qilingan. Keyin ba’zi ilm toliblari o’zlari uchun daftarlariga yozib yurganlar. Asta-sekin bu ish rivojlanib borgan. Islom olamida ilmlarni qaydlab borish tarqalib, turli kitoblar yozilishi yo’lga qo’yildi. Keyin esa fatvoga oid alohida kitoblarga hojat tushdi.

Chunki, bunday kitoblar fiqhiy masalaning konkret xulosasini anglatish, lo’nda javobini bayon qilish maqsadida yozilgan. Masalan, birgina savdo-sotiqqa aloqador fiqhiy hukmlar, masalalar hamda ularning mazhablar bo’yicha talqini, har bir mazhab va qarash sohiblarining dalillari jamlansa, juda katta hajmdagi kitobga aylanib ketadi. Fatvo kitoblari esa masalaning aniq, lo’nda hukmini ortiqcha izohlar va dalillarsiz yoritib beradi. Ahli sunna val jamoa mazhabi asosida yozilgan quyidagi fatvo kitoblari mashhur va mo’tamad asarlar sirasiga kiradi:

“**Navozil**” (Abu Lays Samarqandiy), “**Majma’ul navozil va voqeot**” (Notifiy), “**Voqeot**” (Sodrush Shahid), “**Muhiyt**” (Roziyuddiyn Saraxsiy) “**Fatavo Tatarxoniy**” (Fariduddin Olim ibn Ala Andiritiy Dehlaviy Hindiy Hanafiy), “**Al-fatavo al-kubro**” (Sodrul Kabiyr Hisomuddin Umar ibn Abdulaziz Hanafiy), “**Al-fatavo al-Bazzoziya**” (Hofizuddin Muhammad ibn Muhammad ibn Shihob Bazzoz Kardariy Hanafiy), “**Fatoviy Navaviyya**” (Imom Muhyiddin Yahyo ibn Sharaf Navaviy).

“**Fatavoi Qozixon**” (Faxruddin Hasan ibn Mansur O’zgandiy Farg’oniy Hanafiy), “**Xulosatul Fatava**” (Tohir ibn Ahmad ibn Abdurrashid Buxoriy), “**Fatavoi Zohiriyya**” (Zohiruddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Buxoriy Hanafiy), “**Fatavoi Sirojiyya**” (Ali ibn Usmon ibn Muhammad Sirojuddin O’shiy), “**Fatavoi Nasafiyya**” (Najmuddin Abu Hafis Umar ibn Muhammad Nasafiy), “**Fataviy sug’ro**” va “**Fataviy kubro**” (Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza Abu Muhammad Hisomuddin Sodrush-Shahid) [4, B.131-138].

Fatvolar huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo’llanuvchi nutq uslubi - rasmiy uslubda yoziladi. Rasmiy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Mazkur uslub hujjatchilik xarakteri bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Rasmiy yozishma va hujjatlar iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, ma’muriy - davlat idoralarida ishlatiladi. Shunga ko’ra rasmiy uslubda yuridik qonunlar, diplomatik yozishmalar, farmonlar, qarorlar, ko’rsatmalar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e’lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar yoziladi. Rasmiy yozishma va hujjatlar tilining qo’llanish doirasi keng va xilma-xil bo’lganligidan, uning tarkibi ham turlichadir. Fikrning sodda, qisqa, aniq ifoda etilishi rasmiy ish qog’ozlari uslubining asosiy talabidir.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo’linadi:

1. *Sof qonunchilik uslubi* – qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi;
2. *Idoraviy devonxona uslubi* – buyruq, ariza, talabnoma, tavsifnoma, bildirgi, tarjimai hol, ishonchnoma, dalolatnoma kabi hujjatlar uslubi;
3. *Diplomatik uslub* – nota, bayonnoma, bitim, konventsiya va boshqalar.

Rasmiy uslub shaxslar bilan shaxslar o’rtasidagi; shaxslar bilan idora o’rtasidagi; shaxslar bilan davlat o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va da’vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma’lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da’vat etish va axborot o’z aksini topadi.

Rasmiy uslubga xos xususiyatlar:

- Deyarli yozma shaklda ro’yobga chiqadi;
- Har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo’ladi, badiiy tasviriy vositalar bo’lmaydi, so’zlar ko’chma ma’noda ishlatilmaydi.
- Rasmiy uslub tili aniq va ixcham bo’ladi, rasmiy ish qog’ozlarining sintaktik tuzilishi qat’iy qoliplarga bo’ysunadi, ya’ni muayyan nutqiy qolip (muayyan nutqiy shtamplar), qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga, tayyor sintaktik qurilmalarga ega bo’ladi. Masalan: *ma’lum qilamizki..., ...ni e’tiborga olib, ...ga ko’ra, .. biz quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan, ...dan kelib chiqib, ...sharti bilan, ...berilsin, ...taqdirlansin* kabi tayyor nutq formulalari keng qo’llaniladi;

Rasmiy matn uslubi yo’nalishida tadqiqot olib borish, avvalo, uning leksikasiga e’tibor qaratishni taqazo etadi. So’zga uslub jihatidan yondashuv fikrni aniq ifodalashga ko’mak beruvchi so’z tanlash zarur. Muallif tomonidan so’zning to’g’ri tanlanishi faqat uslub alomatlarini bo’lib qolmay, matnning axborot tashish qimmatini oshirib, mazmun ta’sirini kuchaytiradi. So’zni o’rinsiz tanlash esa, fikrni anglatishda qiyinchilik keltirib chiqarish barobarida, mantiqiy xatoliklarga ham sabab bo’ladi.

Bu stilda adabiy me’yorga qat’iy rioya qilinadi, shevaga xos so’zlar, jargonlar, har xil stilistik bo’yoqqa ega bo’lgan so’zlar ishlatilmaydi. Jumlar ham inversiyasiz bo’lishi lozim. Gaplarda ta’sirchanlik bo’lmaydi. Rasmiy stilda yoziladigan ayrim hujjatlar shtapga o’xshash maxsus tartib va shakl bilan yoziladi. Masalan, rasmiy xatlar, ariza, tushuntirish xati, bildirgi, ma’lumotnomalar, qarorlarni ko’rsatish mumkin. Agar pul, buyum miqdori ko’rsatilishi lozim bo’lsa, oldin raqam bilan, so’ng qavs ichida harflar bilan yoziladi. Hujjatlarda fikr aniq, qisqa, lo’nda (ravon) bayon qilinishi lozim [5, B.43].

Fatvo matnlari ham shaxslar bilan shaxslar o’rtasidagi; shaxslar bilan idora o’rtasidagi; shaxslar bilan davlat o’rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Shaxsiy huquq va majburiyatlarni belgilab, tartibga solish uchun xizmat qiladi.

Fatvo matnlarida muayyan fiqhiy atamlar, belgilangan sintaktik qurilmalarga ega bo'lgan so'zlar qo'llaniladi. Masalan, “shart qilinadi”, “joiz bo'ladi”, “vojib qilinadi”, “talab etiladi”, “etib belgilanadi”, “ruxsat beriladi”, “qaytariladi”, “qabul qilinadi”, kabi terminlar birlamchi turadi. Badiiy bezaklar, so'zning ko'chma ma'nolari qo'llanilmaydi. Aniq hamda kokret ma'nodagi iboralar tanlanadi. Aks holda, ko'zlangan ma'no yuzaga chiqmay qoladi.

Namuna sifatida Ahmad ibn Muhammad ibn Abu Bakr Hanafiyning “Xizonat al-Fatovo” qo'lyozmasidan bir necha fatvolarni keltiramiz.

فصلٌ فيما يُفسد الصوم و فيما لا يفسده. الدموع اذا دخلت في فم الصائم ان كان قليلا كالقطرة و القطرتين و نحو ذلك لا يفسد حتى وجد ملوحتة في جميع فمه ... يفسد صومه صومه, و ان كان كثير

1. “Ro'zani buzadigan va buzmaydigan narsalar haqida fasl. Agar ko'zyosh ro'zadorning og'ziga kirsas, va u kam bo'lsa, masalan bir, ikki qatra yoki shunga o'xshash miqdorida bo'lsa, ro'zasini buzmaydi. Agar ko'z yosh ko'p bo'lsa, hattoki uning sho'rligini butun og'zida his qilsa ro'zasi buziladi” [6, B.38].

فصلٌ في السلام و التعظيم. السائل اذا سلم لا يجوز رد سلامه. في الخلاصة و كذا اذا سلم علي القاضي في المحكمة. و المذكور في التذكير. مرّ برجل يقرأ القرآن لا ينبغي ان يسلم عليه. فان سلم عليه هل يجب عليه الرد؟ اختلفوا و المختار أنه يجب. و كذا اذا مر علي المؤذن و الفقيه في التكرار. و في الحمام ان كانوا مستورين سلم بالاتفاق. و في الخلاصة يسلم عندهما لا جواب السلام اذا لم يكن مسموعا لا يسقط عنه الفرض. و لا بأس برد سلام اهل الذمة و لا يزيد علي قولهم و عليكم

2. “Salom va ulug'lash bobi”. Tilanchi agar salom bersa, uning salomiga javob qaytarish joiz bo'lmaydi. “Xulosa” (kitobi)da kelishicha hukm qilayotgan qoziga, zikr qilayotgan odamga ham salom berilmaydi. Qur'on o'qiyotgan odamning oldidan o'tib ketayotganda ham salom berilmaydi. Agar unga salom berilsa, javob qaytarish shart bo'ladimi? Bu borada har xil fikr aytilgan bo'lib, ixtiyor qilingan gap shuki, salomga alik olish shart bo'ladi. Yana muazzin, fiqh takror qilayotgan odamga ham salom berilmaydi. Agar hammomda o't yoquvchilar bo'lsa, ittifoqan salom beriladi. “Xulosa” (kitobi)da salom beriladi, ikki imom nazdida berilmaydi, deb aytilgan. Agar salomning aligi eshitilmas darajada bo'lsa, farz soqit bo'lmaydi. Zimmiylarning salomiga javob qaytarishning hechqisi yo'q. Faqat “sizlarga ham”dan boshqa so'zni qo'shmaydi.

و تقبيل يد العالم و السلطان العادل يجوز و يكره ان يقبل يد اخر او شيئا منه. الرجل اذا تقدم ممن السفر يعانق. يكره الاحناء عند التحية و تقبيل يد العالم و السلطان العادل يجوز و يكره ان يقبل يد اخر او شيئا منه. الرجل اذا تقدم من السفر يعانق. يكره الاحناء عند التحية.

Olim va adolatli sultonning qo'lini o'pish joiz. Boshqa birovning qo'li yoki uning biror narsasini o'pish makruh. Kishi safardan kelganda quchoqlanadi. Salom berayotganda engashish karohiyatlidir [7, B.99].

Yuqoridagi ikki matnning birinchisi ibodatlar qismidagi ro'za, ikkinchisi esa muamalat qismidagi salom va ulug'lash haqidagi fatvolardir. Guvohi bo'lganimizdek bu matnlar rasmiy uslubda yozilgan bo'lib, mavzuga aloqador fatvo aniq bayon qilib berilgan. Gaplar tuzilishiga ko'ra har xil stilistik bo'yoqlardan xoli, ta'sirchanligi yo'q. Bu yerda badiiy uslub singari estetik zavq ulashish, ilmiy uslub kabi ilmiy yangilik yoki ilmiy ma'lumot berish ko'zlanmagan. Aksincha, musulmon inson uchun o'zi va jamiyatga aloqador masalalarning bayoni, hukmi hamda javobi keltirilgan. Matnda rasmiy uslubga tegishli “ro'zani buzadi”, “ro'zani buzmaydi”, “karohiyatli”, “makruh”, “joiz”, “hechqisi yo'q”, “farz soqit bo'lmaydi”, “shart bo'ladi” kabi lo'nda so'zlar qo'llanilgan. Matndan ko'zlangan maqsad konret ifodalangan.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES

1. Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abdulqodir Roziy. Muxtor as-Sihoh. Bayrut. Maktabat al-Asriyya. 2006.
2. Muhammad Kamoliddin Ahmad Roshidiy. Al-Misbah fi rasmi al-Muftiy va manahij al-Ifto. Ittihad book. Diyband. 2005. – 648 b.
3. Muhammad Kamoliddin Ahmad Roshidiy. Al-Misbah fi rasmi al-Muftiy va manahij al-Ifto. Diyband. Ittihad book. 2005. – 648 b.
4. **Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo‘nalishlar va kitoblar. Toshkent. Sharq. 2011. – 303 b.**
5. Muhabbat Qurbonova, Ma’rufjon Yo‘ldoshev. Matn tilshunosligi. Toshkent “Universitet” 2014. – 115 b.
6. Ahmed ibn Muhammed ibn Ebû Bekir el-Hanefi. Hızânetü'l-Fetâvâ. Yazma eser. № 183618. Süleymaniye Kütüphanesi. 1309. – 142 b.
7. Ahmed ibn Muhammed ibn Ebû Bekir el-Hanefi. Hızânetü'l-Fetâvâ. Yazma eser. № 183618. Süleymaniye Kütüphanesi. 1309. – 142 b.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 12-СОҢ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-12

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-12

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz